O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

QORAQALPOG'ISTON TIBBIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi
№ 23/11 – 2/1
2023yil "31" 08

"TASDIQLAYMAN"
Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti
_____ O.A.Ataniyazova
"___" _____ 2023 yil

«BOLALAR VA O'SMIRLAR GIGIENASI» MODUL DASTURI

Bilim sohasi: 900000 - "Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot"

Ta'lim sohasi: 910000 - "Sog'liqni saqlash"

Ta'lim yo'nalishi: 60910400 - "Tibbiy-profilaktika"

Nukus – 2023

Fan/modul kodi Bolalar va o'smirlar gigienasi	O'quv yili 2023-2024	Semestr 5-10	Kreditlar 15,0	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili Qoraqalpoq/o'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari	
Fanning nomi	Semestr	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Bolalar va o'smirlar gigienasi	5-6	54	36	90
Bolalar va o'smirlar gigienasi	7-8	108	72	180
Bolalar va o'smirlar gigienasi	9-10	162	108	270

2. Modulning mazmuni.

2.1. Modulining maqsadi: - nazorat ostidagi obyektlarda davlat sanitariya nazorati olib borish uchun nazariy va amaliy tayyorgarlikni ta'minlash, mulkchilikning shakllaridan qat'iy nazar turli ta'lim muassasalarida Davlat sanitariya nazorati o'tkazishda amaliy ko'nikmalarni o'rganishdan iborat. Buning uchun turli ta'lim muassasalarida bolalar va O'smirlar salomatlik holatni himoyalash va mustahkamlashga qaratilgan sanitariya me'yorlarini, ta'lim va tarbiyaga qulay sharoitlar yaratishni, turli ta'lim muassasalarini loyihalashtirish va qurish, bolalar va o'smirlar kun tartibini to'g'ri tashkillashtirishni o'rgatish kerak.

2.2. Modulining vazifalari:

- bolalar va o'smirlar jamoasi salomatlik holati va jismoniy rivojlanishini o'rganish va taxlil qilish;
-bolalar va o'smir
lar salomatlik holatiga tashqi muhit omillarini ta'sirini gigienik baholashni o'rganish;
- bolalar va o'smirlar muassasalarini loyihalashtirish, qurish va qayta qurishda davlat sanitariya nazorati olib borish, bolalar jihozlarini ishlab chiqarish ustidan davlat sanitariya nazorati olib borish;
- bolalar ta'lim tarbiya sharoitini gigienik baholash;
- Turli ta'lim muassasalarida xodimlar va tarbiyalanuvchilar orasida sog'lom turmush tarzini tashkillashtirish;

3. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

3.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

5-6 semestr:

1-mavzu.

Bolalar va o'smirlar gigienasi moduli va vazifalari. Bolalar va o'smirlar gigienasi modulining o'quv va ilmiy modul sifatida rivojlanish tarixi.

Modulning zamonaviy tibbiyot sohasidagi ilmiy va amaliy tushunchasi, bolalar va o'smirlar gigienasining asosiy muammolarining tavsifi, o'suvchi organizmning salomatligini saqlashda uning maqsadi va vazifalari. Zamonaviy tekshirish usullari, boshqa profilaktik tibbiyot sohalari bilan aloqalari. Bolalar va o'smirlar gigienasi modulining tarixi va asosiy rivojlanish bosqichlari.

2-mavzu. O'suvchi organizm o'sish va rivojlanishining asosiy qonuniyatlari.

Bolaning o'sish va rivojlanishiga ijtimoiy gigienik, biologik, ekologik omillarning ta'siri. Yosh davriyliligi va uning gigienik me'yorlashtirishda tutgan o'rni. O'suvchi organizm o'sish va rivojlanishi va uning asosiy qonuniyatlari, bolaning o'sish va rivojlanishiga ijtimoiy gigienik, biologik va ekologik omillarning ta'siri, yosh davriyliligi va uning gigienik me'yorlashtirishda tutgan o'rni.

3-mavzu: Kasallanish, uning bolalar orasida yosh xususiyatlari bo'yicha tarkibi

Bolalar va o'smirlar salomatlik holati va unga turli omillarning ta'siri.Salomatlik ko'rsatkichlari va guruhlari. Kasallanish va uning bolalar orasida yosh xususiyatlari bo'yicha tarkibiy tuzilishi. Bolalar va o'smirlar orasida kasalliklarning tarqalish tarkibi va uning ahamiyati.

7-8-semestr:

4-mavzu.Bolalar va o'smirlar jismoniy rivojlanish tartibi. Akseleratsiya va uning nazariyasi.

Bolalar va o'smirlar jismoniy rivojlanish tartibi va uning yosh guruhlari orasidagi me'yorlari. Akseleratsiya va uning nazariyasi. Bolalar va o'smirlar jismoniy rivojlanish me'yorlari va uning baholash usullari. Akseleratsiya. Akseleratsiya gipotezalarini sabablari va salomatlik holatiga aloqasi.

5-mavzu. Umumta'lim maktablarini loyihalashtirish va qurishning gigienik talablari.

Umumta'lim maktablarini qurish sohasida davlat sanitariya nazorati o'rnatish. Bolalar muassasalarini loyihalashtirish, qayta ta'mirlash va foydalanishga topshirishni gigienik asoslari. Umumta'lim maktablarini loyihalashtirishning gigienik asoslari. Yer maydoni va binoga qo'yilgan gigienik talablar.

6-mavzu.O'zbekiston sharoitida maktablarda havo-issiqlik almashinuvi va yoritilganligiga bo'lgan gigienik talablar.

Yoritilganlik tartibini gigienik asoslash va uning o'suvchi organizmga ta'siri (suyak, ko'rish va boshqa tizimlarga). Havo-issiqlik almashinuvi va yoritilganlikning gigienik me'yorlari. Turli ta'lim muassasalarida yoritilganlik tartibi va ultrabinafsha nurlar yetishmovchiligi va uning oldini olish tadbirlari.

7-mavzu. Maktabda o'quv jarayonini gigienik asoslari.
Maktabda o'quv jarayonining gigienik asoslari. Bolalarni o'qitishda komp'yuterlar va EHM dan foydalanishni gigienik aspektlari. O'qitish davomida o'quv jarayoniga EHM va komp'yuterlarni qo'llash.

8 –mavzu. Maktab jihozlariga bo'lgan asosiy gigienik talablar.
Tana holatini gigienik asoslari. Bolalar va o'smirlar jihozlarining turlari. Sinf xonalari asosiy jihozlari. Differentsiya. Distantsiya. Jihozlar va ularni joylashtirishga qo'yilgan gigienik talablar.

9- mavzu. Bolalar va o'smirlar kontingentlarini mehnat va kasbiy ta'limiga o'rgatishning gigienik asoslari.
Bolalar muassasalarida mehnat ta'limini tashkillashtirishga qo'yilgan gigienik talablar. Bolalar va o'smirlar mehnat faoliyatiga funktsional xususiyatlarini shakllanishi, o'suvchi organizmiga mehnatning ta'siri. Turli kasblarda o'smirlarni kasbga ajratish va kasbiy shifokor maslahatini tashkillashtirishning tibbiy asoslari.

10- mavzu. O'smirlarni kasbga yo'naltirishning gigienik asoslari
Turli kasblarda o'smirlarni kasbga ajratish va kasbiy shifokor maslahatini tashkillashtirishning tibbiy asoslari. Maktab o'quvchilari va o'smirlarni kasbga yo'naltirishni ahamiyati. Shifokor kasbiy maslahatini mezonlari. O'smirlar mehnatini himoya qilishning asosiy qonuniy xujjatlari..

9-10 semestr:

11- mavzu.Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar muassasalarini loyhalashtirish va qurishning gignenik asoslari.
Surunkali kasalliklari bor bolalarni o'quv tarbiyaviy muassasalariga bo'lgan gigienik talablar. Maktab internatlari va sanatoriy turidagi muassasalarga bo'lgan gigienik talablar. Yer maydonining asosiy bo'lgan zamonaviy sanitar-gigienik talablar.

12- mavzu. Turli ta'lim muasssasalarida sanitariya va epidemiyaga qarshi tadbirlar tartibining gigienik asoslari.
Bolalar muassasalarida sanitariya va epidemiyaga qarshi tartibni tashkillashtirishda BO'G vrachining ish mazmuni. Bolalar va o'smirlar muassasalarida sanitar epidemiologik qulaylikni ta'minlash gigienik talablari. Karantin guruhi infektsiyalarida tavsiya etiladigan zararsizlantirish chora-tadbirlari.

13- mavzu. Bolalar va o'smirlar sog'lomlashtirish maskanlari ustidan sanitariya nazoratini tashkillashtirishga qo'yilgan gigienik talablar.
O'zbekiston Respublikasida yozgi sog'lomlashtirish maskanlari ijtimoiy - gigienik asoslari va sog'lomlashtirish chora-tadbirlar, yozgi sog'lomlashtirish maskanlari chora-tadbirlarini tashkillashtirish va o'tkazishda sanitariya vrachining tutgan o'rni. Yozgi sog'lomlashtirish maskanlari vrachi ish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari. Davolash yunalishidagi yozgi sog'lomlashtirish maskanlariga ko'yilgan gigienik talablar.

14- mavzu. Bolalar va o'smirlar aholisini tibbiy ta'minotining gigienik asoslari. Bolalar va o'smirlar gigienasi vrachining asosiy vazifalari va tutgan o'rni.
Bolalar va o'smirlar muassasalarida sanitar profilaktik va sog'lomlashtiruvchi chora-tadbirlarni tashkillashtirish va o'tkazish. Bolalar va o'smirlar gigienasi bo'limida ishlayotgan gigienist va o'smirlar vrachining asosiy vazifalari.

15- mavzu. Bolalar va o'smirlarni jismoniy tarbiyalashning gigienik asoslari.
O'zbekiston mikroiqlim sharoitini hisobga olgan holda bolalar va o'smirlarni jismoniy tarbiyalashning zamonaviy muammolari. Jismoniy tarbiya vositalari ustidan shifokor nazoratini tashkillashtirishning asosiy mezonlari.
16–mavzu. Turli ta'lim muassasalarida bolalar ovqatlanishining gigienik asoslari.
O'suvchi organizmning issiqlik va moddalar almashinuvining xususiyatlari. Bolalar va o'smirlar ovqatlanishining fiziologik me'yorlari. Bolalar jamoasida ovqatlanishni tashkillashtirish va tartibining gigienik mezonlari.
17- mavzu. Polimer materiallarga qo'yilgan gigienik talabalar.
Bolalar va o'smirlar muassasalarini loyihalashtirish va qurishda polimer materiallarga qo'yiladigan gigienik talabalar. Polimer materillarning turlari. Polimer materiallarni baholash tartibi. Polmer materiallar ustidan Davlat sanitariya nazorati olib borish tartibi.
18- mavzu. Bolalar va o'smirlar orasida sog'lom turumush tarzini shakllantirishda gigienik tarbiyaning ahamiyati.
Bolalar va o'smirlar orasida sog'lom turmush tarzining ahamiyati. Sog'lom turmush tarzining muhim tashkil etuvchi tarkibiy qismlari. Bolalar va o'smirlar orasida sanitariya madaniyatini oshirish bo'yicha chora – tadbirlar majmuasi ishlab chiqish.

4. Amaliyot, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.
4.1. Amaliy (seminar) mashg'ulotlarining mavzulari ro'yxati:
6-semestr
1-mavzu. Bolalar va o'smirlar salomatlik holatini xarakterlovchi ko'rsatkichlarni baholash usullari.
2-mavzu. Antropometrik tekshirish usullari, o'smirlarning jismoniy rivojlanish standartlarini ishlab chiqish.
3-mavzu. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari loyihasiga sanitar gigenik baho berish.
4-mavzu. Maktabgacha ta'lim muassasalar yer maydoni va havo-issiqlik almashinuvi, yoritilganlik tartibini baholash.
5-mavzu. MTM jihozlari va ularni joylashtirishga gigienik baho berish
6-mavzu. Bolalar o'yinchoqlari va kiyimlariga gigienik baho berish
7-mavzu. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ovqatlanishini gigienik baholash.
8-mavzu. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari kun tartibini gigienik baholash.

9-mavzu. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining maktab ta'lim sharoyitiga funksional tayorgarligini baholash

7-8semestr

1-mavzu. Umumta'lim maktablari loyihasini sanitar-gigienik ekspertiza qilish.

2-mavzu. Umumta'lim maktablari er maydoni, havo-issiqlik almashinuvi, yoritilganlik tartibini baholash.

3-mavzu. Umumta'lim maktablari jihozlari va ularni joylashtirishga gigienik baho berish.

4-mavzu. Umumta'lim maktablari darsliklarini gigienik baholash usullari.

5-mavzu. Umumta'lim maktablarida o'quv jarayonini gigienik baholash usullari.

6-mavzu. Maktab yoshidagi bolalar va o'smirlar ovqatlanishining gigienik asoslari.

7-mavzu. Maktab-internatlarni loyihasini sanitar-gigienik ekspertiza qilish.

8-mavzu. Maktab-internatlarni er maydoni, havo-issiqlik almashinuvi, yoritilganlik tartibini baholash.

9-mavzu. Maktab-internatlarni jihozlari va ularni joylashtirishga gigienik baho berish.

10-mavzu. Maktab-internatlari o'quv jarayonini gigienik baholash usullari.

11-mavzu. Akademik litseylar loyihasini sanitar-gigienik ekspertiza qilish.

12-mavzu. Kasbiy maktablar loyihasini sanitar-gigienik ekspertiza qilish.

13-mavzu. Kasbiy maktablar jihozlari va ularni joylashtirishga gigienik baho berish.

14-mavzu. Organizmning ishlash qobiliyati.

15-mavzu. Organizmning funktsional holatini baholash usullari..

16-mavzu. Kasbiy maslaxat olib borishva o'smirlarni kasbga yaroqliligini aniqlash usullari.

17-mavzu. Yozgi sog'lomlashtirish maskanlari loyihasini sanitar- gigienik ekspertiza qilish.

18-mavzu. Yozgi sog'lomlashtirish maskanlari ishini tashkil etish va bolalar kun tartibini tahlil qilish.

9-10 semestr

1-mavzu.SEO va JSX bolalar va o'smirlar gigienasi bo'limining tashkiliy uslubiy ishlari.

2-mavzu. SEO va JSXda bolalar va o'smirlar gigienasi bo'limi ishini rejalashtirish.

3-mavzu.SEO va JSXda BO'G bo'limida dalolatnomalar, ma'lumotnomalar, xatlar, bayonnomalar, xisobotlar tuzish tartibi.

4-mavzu. SEO va JSXda bolalar va o'smirlar gigienasi bo'limi OSN xujjatlarini o'rganish.

5-mavzu. SEO va JSXda bolalar va o'smirlar gigienasi bo'limi JSN xujjatlarini o'rganish.

6-mavzu. MTTlarda joriy sanitariya nazorati olib borish.

7-mavzu. MTTlarda laborator-instrumental tekshirish.

8-mavzu. MTTlarda laborator-instrumental tekshirish materiallari tahlili.

9-mavzu. Umumta'lim maktablarida joriy sanitariya nazorati olib borish.

10-mavzu. Umumta'lim maktablarida laborator-instrumental tekshirish.

11-mavzu. Umumta'lim maktablarida laborator-instrumental va joriy sanitariya nazorati materiallari tahlili.
12-mavzu. Maktab-internatlarda joriy sanitariya nazorati olib borish.
13-mavzu. Maktab-internatlarda laborator-instrumental tekshirish.
14-mavzu. Maktab-internatlarda laborator-instrumental va joriy sanitariya nazorati materiallari tahlili.
15-mavzu. Akademik litseylarda joriy sanitariya nazorati olib borish.
16-mavzu. Akademik litseylarda laborator-instrumental tekshirish.
17-mavzu. Akademik litseylarda laborator-instrumental va joriy sanitariya nazorati materiallari tahlili.
18-mavzu. Kasbiy maktablarda joriy sanitariya nazorati olib borish.
19-mavzu. Kasbiy maktablarda laborator-instrumental tekshirish.
20-mavzu. Kasbiy maktablardalaborator-instrumental va joriy sanitariya nazorati materiallari tahlili.
21-mavzu. Yozgi sog'lomlashtirish maskanlarida joriy sanitariya nazorati olib borish.
22-mavzu. Yozgi sog'lomlashtirish maskanlarida laborator-instrumental tekshirish.
23-mavzu. Yozgi sog'lomlashtirish maskanlarida laborator-instrumental va joriy sanitariya nazorati materiallari tahlili.
24-mavzu. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan va surunkali kasalliklarga chalingan bolalar muassasalarini gigienik tekshirish.
25-mavzu. TTM sanitariya maorifi ishlarini olib borish.
26-mavzu. Turli ta'lim muassasalarida kasallanish tahlili.
27-mavzu. TTM ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish.

4.2. Amaliy (seminar) mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Ushbu o'quv moduli bo'yicha talabalarni amaliy mashg'ulotlarini, ma'ruzalar matni va tavsiya etilgan adabiyotlar hamda davriy jurnallar, internet materiallari bilan ishlashni, standart va malaka talablariga mos ravishda taqdimot, turli xil mashqli o'yinlar bilan bajarishni o'z ichiga oladi.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyalardabir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda mashg'ulot maqsadi aniq belgilab olinadi va innovatsion pedagogik texnologiyalardan keng foydalaniladi.

Talaba tomonidan natija mustaqil ravishda qo`lga kiritish imkoniyatlari ta`minlanadi.

Talabadan nazariy-metodik jihatdan tayyorlanadi.

4.3. Modul davomida egalanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yxati:

1. Maktabgacha ta'lim muassasalari loyihasini ekspertizasi;
2. Umum ta'lim maktablari loyihasini ekspertizasi;
3. Bolalar o'yinchoqlarini gigienik baholash;
4. Bolalar kiyimlarini sanitar ekspertizasi.
5. Maktab darsliklarini gigienik baholash.
6. Maktabgacha ta'lim muassasalari kun tartibini baholash.
7. Maktabda o'quv-tarbiya jarayonini gigienik baholash;
8. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini gigienik baholash;
9. Bolalar va o'smirlarning jismoniy rivojlanishini gigienik baholash;
10. Jismoniy yuklamaning fiziologik egriligini aniqlang;
11. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni maktabga yetukligini aniqlash;
12. Bolalar poyabzallariga gigienik baho berish;
13. Maktab jihozlariga gigienik baho berish;
14. O'smirlarni kasbga yo'naltirilishini gigienik baholash;

5. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

5.1. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etilgan mavzular:

5-6 semestr:

6-semestr:

1-Mavzu. Bolalar va o'smirlar gigienasi modulining vazifalari;

2-Mavzu. Bolalar va o'smirlar gigienasi modulining tarixi;

3-Mavzu.MTT tarbiyalanuvchilari kun tartibini asosiy tarkibiy tuzilishi;

4-Mavzu.MTT tarbiyalanuvchilari ovqatlanishini tahlil qilish;

5-Mavzu.MTTlarida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish;

6-Mavzu. Uyushgan jamoalarda bolalar va o'smirlar kasallanishini o'rganish;

7-8 semestr:

1-Mavzu. Maktab o'quv qurollarini gigienik baholash;

2-Mavzu. Maktabda o'quv jarayonini gigienik baholash;

3-Mavzu. Maktab o'quvchilarini kun tartibini gigienik baholash;

4-Mavzu. Maktablarda jismoniy tarbiya darsini tashkillashtirishning gigienik asoslari;

5-Mavzu. Bolalarni chiniqtirish usullari;

6-Mavzu. Maktablarda tibbiyot hodimlarining davolash-profilaktika ishlari;

7-Mavzu. Umuta'lim maktablarda uchraydigan somatik kasalliklarni kelib chiqish sabablarini gigienik baholash;

8-Mavzu. Umumta'lim maktablariga qo'yiladigin gigienik talablar;

9-Mavzu. Kasbiy maktablar o'quvchilarining mehnat faoliyatini tashkillashtirish;

10-Mavzu. Kasbiy maktablarda o'quvchilar organizmiga ta'sir qiluvchi omillarni gigienik asoslash;

11-Mavzu. Umumta'lim maktablari jihozlarini joylashtirilishini gigienik baholash;

12-Mavzu. Bolalar jamoasini sog'lomlashtirishda bolalar va o'smirlar gigienasini ahamiyati, uning sanitariya sog'lomlashtiruvchi choralari va xavfli omillar bilan bog'liqligi,bu muassasalarda sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish;

9-10 semestr:

1-Mavzu.SEO va JSX BO'G bo'limining tashkiliy uslubiy ishi;

2-Mavzu.BO'GBi ishini xarakterlovchi asosiy ko'rsatkichlari;

3-Mavzu.BO'G bo'limi vrachining dalolatnomalar, ma'lumotnomalar, xatlar, hisobotlar tuzish tartibi;

4-Mavzu. Bolalar va o'smirlar salomatlik holatini SEO va JSX BO'G bo'limining ish samaradorligini baholovchi ko'rsatkichlar;

5-Mavzu. Bolalar va o'smirlar muassasalarini qurish va qayta qurishustidan ogohlantiruvchi sanitariya nazorati;

6-Mavzu. Polimer va qoplam materiallariga gigienik tavsif berish va baholash.

7-Mavzu.SEO va JSX OSN xujjatalarini o'rganish;

8-Mavzu. Turli ta'lim muassasalari uchunajratilgan er maydonini gigienik tekshirish;

9-Mavzu. Bolalar va o'smirlar muasasalarida joriy sanitariya nazorati olib borish usullari;

10-Mavzu. Turli ta'lim muassasalarini SEO va JSX buyrug'iga binoan gigienik tekshirish;

11-Mavzu. Turli ta'lim muassasalarini chuqurlashtirilgan sanitar-gigienik tekshirish;

12-Mavzu. Turli ta'lim muassasalarini joriy sanitariya nazorati va laborator- gigienik tekshirish materiallari tahlili;

13-Mavzu. Maktab, maktab-internatlarini kontrol sanitar- gigienik tekshirish;

14-Mavzu. Maktab, maktab internat va kasbiy maktablarni chuqurlashtirilgan sanitar gigienik tekshirish;

15-Mavzu. Kasbiy maktab, maktab-internat va maktablarda sanitariya nazoratining tekshiruv materiallari tahlili bo'yicha JSN;

16-Mavzu. Kasbiy maktablarni sanitar gigienik tekshirish;

17-Mavzu. Maktablarni chuqurlashtirilgan sanitar gigienik tekshirish va bayonnoma to'ldirish;

18-Mavzu. Internet tarmog'idan ma'lumotlar yig'ish va undan xulosa, takliflar tuzishda foydalanish;

4.2. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:

Bolalar va o'smirlar gigienasi moduli bo'yicha tavsiya etilayotgan mustaqil ishlar modul tizimida mustaqil ishlar modul tizimida turli xil shaklda amalga oshiriladi:

–berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;

–ovqatlanish gigienasi modulining bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy

adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;
–ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislarini tayyorlash;
–vaziyatli va klinik muammollarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechish;
–keys (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida sase- study) yechish;
–grafik organayzerlash ishlab chiqish va to'ldirish;
–krossvordlar tuzish va yechish;
–prezentatsiya va videoroliklar tayyorlash hamda mustakil ish jarayonida keng qo'llash va h.k.

6. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari.

6-semestr yakunida

Talaba:

- bolalar va o'smirlar gigienasi modulining maqsadi va vazifalari haqida;
- bolalar va o'smirlar gigienasi modulining dolzarb muammolari;
- bolalar va o'smirlar salomatlik holatini xarakterlovchi ko'rsatkichlar haqida;
- bolalar va o'smirlarni antropometrik ko'rsatkichlari haqida;
- bolalar va o'smirlarni jismoniy rivojlanish standartlari haqida;
- maktabgacha ta'lim muassasalari loyihasini ekspertiza qilish va gigienik baholash;
- maktabgacha tarbiya yoshidagi ovqatlanishini gigienik baholash haqida;
- maktabgacha ta'lim tashkiloti kun tartibini sanitariya gigienik baholash to'g'risida ***haqida tasavvurga ega bo'lishi;***
- maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni maktabga etukligini aniqlashni;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida laborator-instrumental tekshirish ishlarini olib borishni bilishi va ulardan foyidalana olishni;
- xronometraj, xronorefleksometriya, tremorometriya; dinamometriya; aktografiya; anketa so'rov usullar yordamida qiyosiy analiz qilishni ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***
- maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlar va tarbiyalanuvchilarini sog'lomlashtirish tadbirlari rejasini ishlab chiqish hamda epidemiologik tadbirlarni yaxshilash ***kabi malakalariga (shu jumladan, gigienik amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak.***

8-semestr yakunida:

Talaba:

- umumta'lim maktablari loyihalarini ekspertiza qilish va gigienik baholash xaqida;
- maktab internatlari loyihalarini ekspertiza qilish va gigienik baholash xaqida;
- umumta'lim maktablarida dars jadvali tuzishni baholash mezonlari haqida;
- maktab yoshidagi bolalar ovqatlanishini gigienik baholash haqida;
- umumta'lim maktablarida mehnat ta'limidarslarini tashkillashtirish xususiyatlarini;
- maktab jihozlarini sanitar gigienik baholash haqida;
- maktab darsliklarini sanitariya gigienik baholash xaqida;
- umumta'lim maktablarida o'quv jarayonini gigienik baholash haqida;
- jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini gigienik baholash;
- o'smirlarni kasbga yo'naltirish va kasb tanlashning ahamiyati haqida;

- turli kasblarni tanlash uchun kasbiy maslahat va kasbga ajratishni tibbiy asoslari *haqida tasavvurga ega bo'lishi;*
- o'smirlar organizmiga asosiy kasbiy ishlab chiqarish omillarining ta'sirini;
- kasbiy maktablarda o'quv-ishlab chiqarish jarayonining xususiyatlarini;
- maktabda o'quv jarayonini tashkillashtirishning uslubiy asoslarini;
-maktab-internatlari va sanator-sog'lomlashtiruvchi muassasalarda kun tartibi va dars jadvalani tuzishning xususiyatlarini bilishi va ulardan foydalana olishi;
– bolalarga ta'lim berishda komp'yuterlardan foydalanishning gigienik aspektlarini ishlab chiqish;
– organizmning funktsional holati va ishlash qobiliyatini o'rganishning uslubiy asoslarini tadbiq qilish kabi malakalariga *(shu jumladan gigienik amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak.*

10-semestr yakunida:

- SEX bolalar va o'smirlar gigienasi bo'limi ishining qonuniy xujjatlari va vrachning asosiy ishi haqida;
- BO'GB vrachining ish rejasi va to'ldirish tartibi haqida;
- xatlar, ma'lumotnomalar va dalolatnomalar turlari haqida;
- gigienik tekshirish turlari va samaradorligini baholash haqida;
- kasbiy maktablar loyihalarini ekspertiza qilish va gigienik baholash *to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;*
- turli ta'lim muassasalarida laborator-instrumental tekshirish ishlarini olib borishni bilishi va ulardan foydalana olishni;
- turli ta'lim muassasalarini loyihalashtirish, qurish va qayta ta'mirlashda sanitar-gigienik hamda sanitar-epidemiologik norma va qoidalarga rioya qilishda nazoratni;
– turli ta'lim muassasalari ovqat tayyorlash va ovqatlanish o'rinlarida sanitar-gigienik va epidemiologik taxlika omillarini baholash va profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqishni bilishi va ulardan foydalana olishi;
– turli ta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlanish borasida sanitariya maorifi ishlarini targ'ibot qilish;
– SEX BO'GB bo'limi OSN materiallarini tahlil qilish;
– SEX BO'GB bo'limi JSN materiallarini tahlil qilish kabi malakalariga *(shu jumladan gigienik amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak.*

7. Ta'lim texnologiyalari va metodlari.

- Ma'ruza.
- Amaliy mashg'ulotlar.
- Videofilmlar, multimediyali va o'qituvchi kompyuter dasturlardan, o'qitish metodikasidagi yangi texnologiyalardan, mavzular bo'yicha nazariy bilimlarni so'rashdan foydalaniladi;
- bakalavrlarning mustaqil ishi, individual va guruhli prezentatsiyalar, uyga berilgan vazifalarni tayyorlash, referatlar yozish, testlar, vaziyatli masalalar va boshqalar.

8. Kreditlarni olish uchun talablar.

Joriy, oraliq nazoratlarini kafedrada ogizaki topshirish, yakuniy nazorat bo'yicha ogizaki yoki test shaklida muvaffaqiyatli topshirish.

9. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari.

9.1. Asosiy adabiyotlar

1. Shayxova G.I. Bolalar va o'smirlar gigienasi. Darslik. – Toshkent. TAFFAKUR-BO'STONI.2011y.
2. Shayxova G.I. Bolalar va o'smirlar gigienasi. Darslik. – Toshkent. Toshkent tezkor bosmaxonasi.2004 y.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Demidenko N.M..Gigiena.Uchebnik. – Tashkent. O'qituvchi. 2002 y.
2. Demidenko N.M.. Gigiena.Darslik. – Toshkent. O'qituvchi. 2001 y.
3. «Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida»gi Qonuni. 2015 y. -18 b.
4. QMQ,San Q va M, Dav STI, uslubiy ko'rsatmalar.

Internet saytlar:

1. www.gov.uz
2. www.lex.uz
3. www.tma.uz
4. www.minzdrav.uz;
5. www.Ziyonet
6. www.mma.ru
7. www.referatw.ru

O'qitish natijalari:

Modulni yakunlaganda talaba biladi:

6-semestr:

1. Bolalar orasida keng tarqalgan kasalliklarning etiopatogenezini;
2. Kasalliklarning xafv omillarini va ularni bartaraf qilish yo'llarini;
3. Bolalar va o'smirlarning jismoniy rivojlanish standartlarni ishlab chiqishini;
4. Bolalarning aqliy va jismoniy rivojlanishga ta'sir qiluvchi gigienik omillarni

7-8-semestr:

5. Turli ta'lim muassasalarini aholi yashash joylarida joylashtirish mezonlarini;
6. Turli ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya sharoitlarni gigienik xususiyatlarni;
7. Organizmning ishlash qobiliyati va funktsional holatini baholash usullari;
8. O'smirlarning kasbga yaroqligini aniqlash usullari;
9. Kasbga yaroqlilikni psixofizoilogik mezonlarni baholash tartibini;
10. Bolalarni jixozlarni gigienik baholash tartibini;

9-10-semestr:

11. Turli ta'lim muassasalarini aholi yashash joylarida joylashtirish mezonlarini;
12. Turli ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya sharoitlarni gigienik xususiyatlarni;
13. Organizmning ishlash qobiliyati va funktsional holatini baholash usullari;
14. O'smirlarning kasbga yaroqligini aniqlash usullari;
15. Kasbga yaroqlilikni psixofizoilogik mezonlarni baholash tartibini.

Modulni yakunlaganda talaba bajara oladi:

6-semestr:

1. Bolalik davrlarida ko'p uchraydigan kasalliklarning profilaktik tadbirlar rejasini ishlab chiqish;
2. Turli yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini aniqlash (bo'y, tana vazni, ko'krak qafasi aylanasi);
3. Bolalarning maktabga funktsiona tayyorgarlik darajasini baholash;
4. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning kunlik ovqatlanish ratsioni baholash

7-8-semestr:

4.Turli ta'lim muassasalarining loyixasini gigienik ekspertiza qilishni;

5.Bolalarni o'qinchoqlarini gigienik baholashni;

6.Bolalar kiyimlarini gigienik baholashni;

7.Maktab jihozlarni gigienik baholashni;
8.Maktab darsliklarni gigienik baholashni;

9-10-semestr:

9. Turli ta'lim muassasalari yer maydonini gigienik baholash shakllarni to'ldirishni;
10. Turli ta'lim muassasalarida joriy sanitariya nazoratini olib borishni;
11.Turli ta'lim muassasalari labarator-instrumental tekshirish ishlarni olib borishni;
12. Turli ta'lim muassasalarida kasallanish materiallarini tahlil qilishni;
13. Turli ta'lim muassasalarida saniatriya gigiena va epidemiyaga qarshi chora- tadbirlar buzilganda jarima solishni;
14. Turli ta'lim muassasalaridar gigienik va epidemiyaga qarshi tadbirlar buzilganda muassasani ish faoliyatini to'htaish tartibni.

Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

Modulning o'quv dasturi Qoraqalpog'iston tibbiyot institutining
«___» _____ - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

O`quv-uslubiy bo'limi boshlig'i Abdullaeva N.J.

10. Fan/modul uchun ma'sullar:

Ataxanova D.O. – Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti, "Gigiena va atrof muhit" kafedrasi mudiri, PhD;

Kusbergenova X. - Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti, "Gigiena va atrof muhit" kafedrasi assistenti.

Taqrizchilar:

Madreimov A.	-QTI, "Yuqumli kasalliklar va epidemiologiya" kafedrasi professori, tibbiyot fanlari doktori.
Absattarova V.K.	-Qoraqolpog'iston Respublikasi SEO va jamoat salomatligi boshqarmasi rahbar muovini, tibbiyot fanlari nomzodi.